BINO VA INSHOOTLARDA YONG‘IN XAVFSIZLIGI

Turdaliyeva Nozimaxon Lutfillo qizi, Jo‘rayeva Mehrigul Azimjon qizi,

G‘aybullayeva Madina G‘ulomjon qizi.

Farg'ona Politexnika Instituti
MMTX 98_20 guruhi talabasi.
Telefon: +998996039359

Hozirgi vaqtda yong’in xavfsizligi talablari turli me’yoriy hujjatlar: davlat standartlarida, qurilish va shaharsozlik me’yorlari va qoidalari, yong’in xavfsizligi me’yorlari va qoidalari, tarmoqli me’yoriy manbalar va me’yoriy manbalarning boshqa turlarida o’z ifodasini topgan. Barcha me’yoriy ma’lumotlar respublikadagi mavjud yong’in xavfsizligi kuchlari va vositalari bilan o’zaro bog’langanligini inobatga olish taqozo etiladi. Umumiy tushunchalar, binolar, inshootlar va ular konstruktsiyalarining olovgabardoshligi, yong’indan himoyalash vositalarini qo’llash zarurligini o’z ichiga oluvchi ushbu me’yorlarining asosiy tushunchalari ShNK 2.01.02-04 «Binolar va inshootlarning yong’in xavfsizligi” normativ hujjatida o’z ifodasini topgan, shuningdek olovdan himoyalashning passiv vositalarini qo’llashga taalluqli bo’lgan boshqa me’yoriy hujjatlarning qisqacha matni quyida keltirilgan. Qurilish materiallari ShNK 2.01.02-04 ga muvofiq faqat yong’in xavfsizligi bilan tavsiflanadi.

Bino va inshootlarni yonish va portlashga moyillik darajasini aniqlashdan maqsad ularda sodir bulajak yong’in va portlashlar oqibatida yuzaga keluvchi buzilishlarni va odamlarga xavfli va dahshatli ta’sirini oldini olishdan iborat. Bino va inshootlarni yonish va portlashga moyilligi, ularning qanday ashyolardan qurilganligiga va ularda mavjud ishlab chiqorish jarayonida ishlatiladigan yoki saqlanadigan xomashyolarning yonuvchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi. Umumittifoq texnologik loyihalash me’yori (ONTP 24-86. 1.2.3) va qurilish qoidalari va me’yorlari (KMK 2. 01.02-85) ga binoan sanoat korxonalari va omborlari yonish va portlash xavfi bo’yicha 5-ta toifalarga bo’linadi, jumladan A, B, V, G va D. Bularning A va B toifalari yonish va portlashga moyil. V va G toifalari bo’lsa faqat yonishga xavfli deb hisoblanadi. D toifasida esa na yonish va na portlash xavfi mavjud emas.

Bino va inshootlarni bunday guruhlanishi, ularda ishlatiladigan yoki saqlanadigan engil yonuvchi gazsimon va suyuq moddalarning bug’lari havo bilan aralashganda, portlovchi gazli muxitni hosil qiluvchi agregat holati va ularning alangalanish harorati (Ta)- ga binoan amalga oshirilgan

Hozirgi vaqtda po’lat konstruktsiyalarning olovbardoshlik chegaralarini me’yorlanadigan qiymatlarga ko’tarish uchun olovdan himoyalashning turli usullari qo’llanilmoqda. Qurilish konstruktsiyalari bo’yicha olov tarqalish tezligini pasaytirish, mazkur konstruktsiyalar uchun samarali (effektiv) olov himoyalovchi qoplamalar (olovdan passiv himoyalash vositalari)dan foydalanish - binolar va inshootlarning yong’in xavfsizligini oshirishning asosiy yo’nalishlaridan biridir. Yong’indan (olovdan) himoyalash bo’yicha inshootlar konstruktsiyalariga qo’yiladigan talablar berilgan inshoot turi uchun talablarni konkretlashtiruvchi me’yoriy hujjatlar bilan renglamentlashtiriladi, masalan: sanoat korxonalari QMQ 2.09.03-02 «Sanoat korxonalarining inshootlari bilan yoki Jamoat binolari va inshootlari ShNK 2.08.02-09* «Turar-joy binolari» esa ShNK 2.08.01-05 bilan reglamentlashtiriladi. Jamoat va ma’muriy binolar va inshootlar

konstruktsiyalarini yong'indan himoyalash bo'yicha talablar (ShNK 2.08.02-09; ShNK 2.08.04-04). II darajali olovbardosh jamoat va ma'muriy binolar va inshootlarda asosiy yuk ko'taruvchi elementlarni 90 daqiqadan kam bo'lmagan olovbardoshlik chegarasi bilan ko'zda tutish taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурашидов К.С., Хабилов Б.А., Тўйчиев Н.Ж., Рахимбоев А.Г. Дарслик.«Қурилиш механикаси», Тошкент, 2000
2. O.R.YULDASHEV,G.M.G'ULOMOVA,I.AXMEDOV, D.X.ZOKIROV „BINO INSHOOTLAR XAVFSIZLIGI" TOSHKENT-2017